




XORAZM VILOYATI  
STATISTIKA BOSHQARMASI

# XORAZM VILOYATIDA MADANIYAT VA SAN'AT MUASSASALARI FAOLIYATI 2022- yilda



**Madaniyat bu** - inson faoliyati va uning ahamiyatini belgilovchi ramziy vositalar va asarlar yig'indisidir. Madaniyat musiqa, adabiyot, san'at, me'morchilik, teatr, kino va turmush tarzi kabi faoliyatlarda namoyon bo'lishi mumkin. Antropologiyada «madaniyat» atamasi mahsulot va ularning ishlab chiqarilishi, estetik qiymati va shu jarayonlar bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlarni bildiradi. Bu jihatdan madaniyat san'at, fan va manaviy tizimlarni o'z ichiga oladi.

**Madaniyat** - bu jamiyat, shaxsning ijodiy kuchlari va qobiliyatlari tarixiy rivojlanishining ma'lum darajasi. U kishilar hayoti va faoliyatining turli jabhalarida, ular yaratayotgan moddiy va ma'naviy ne'matlarda namoyon bo'ladi.

San'at ijtimoiy ong va inson faoliyatining o'ziga xos shaklidir. San'at qadimiy tarixga ega bo'lib, u jamiyat taraqqiyotining dastlabki bosqichlarida inson faoliyatining rivojlanishi bilan bog'liq holda paydo bo'la boshlagan.

San'at odamlarning estetik ehtiyojlarini qondirish bilan birga, o'z taraqqiyotining turli bosqichlarida jamiyat a'zolarini ma'lum bir ruhda tarbiyalash, ularning aqliy va hissiy rivojlanishi, shaxsning turli maqsadlari, his-tuyg'ulari, qiziqishlari va ideallarini ifodalash vositasi bo'lib xizmat qilgan. Estetik tafakkur tarixida san'at go'zallik qonuniyatlari asosida qandaydir tarzda narsa va hodisalarni aks ettirish va hayotni badiiy tarzda ifodalash g'oyasiga aylangan.

**Teatr san'ati** azaldan insoniyatning ma'naviy hayotida o'z o'rnini egallagan. Ming yillar avval qadimgi Hindiston, Qadimgi Xitoy va Qadimgi Yunonistonda teatr dastlab bir, keyin ikki bosqichdan iborat bo'lib, shundan keyingina jamoaviy san'at turiga aylangan. Boshqacha aytganda, spektakl jamoaviy ijod mahsuli bo'lsa, rejissyor, dramaturg, aktyor, rassomning ijodiy izlanishlari samarasi bo'lsa, aktyorlarning bugungi ishi boshqacha. Demak, sahna san'atkorning muttasil ijodkorligini ko'rsatadi, aktyor zamonaviy san'atga uning ruhi, ijodiy kayfiyati bilan bog'liq nimadir qo'shadi yoki olib tashlaydi.



## XORAZM VILOYATIDAGI MUZEYLAR

Viloyatimizda 2022- yilda jami muzeylar soni **4** tani tashkil etgan. Shundan, muzey filiallari soni **2** taga teng. Muzeylarga tashrif buyuruvchilar soni esa **431,8** ming kishidan iborat bo'lib, ulardan o'quvchi va talabalar ulushi **33,3** %ni tashkil etgan.



Muzeylar soni, birlik





### 2022- yilda muzeylar faoliyati

28 ko'rgazmalar

277 ma'ruzalar

4 067 ekskursiyalar


### Tashrif buyuruvchilar soni, ming kishi



- yillar kesimida
- tashrif buyuruvchilar
- ulardan o'quvchi va talabalar

Bugungi kunda viloyatimiz muzeylarida turli xildagi buyumlar va eksponatlar mavjud bo'lib, 2022- yilda muzeylardagi jami asosiy fond eksponatlari soni **40 319** tani tashkil etgan. Muzey eksponatlarining **505** tasi rassomlik, **259** tasi grafika, **57** tasi haykaltaroshlik, **2 707** tasi amaliy san'at, **16 565** tasi numizmatika, **1 464** tasi arxeologiya buyumlari, **3 301** tasi suratlar, **5 485** tasi hujjatlar, **1 891** tasi maishiy va etnografik buyumlar va **8 085** tasi boshqa eksponatlardan iborat.

### **2022- yilda asosiy fond eksponatlari soni, birlik**



## 2022- yilda muzeylarning ilmiy-ma'rifiy ko'rgazma ishlari

### Shahar va tumanlar kesimida muzeylarga yakka tartibda tashriflar soni, ming kishi

2022-yil

Xiva sh. – 253,8

Urganch sh. – 20,2

2021-yil

Xiva sh. – 211,9

Urganch sh. – 24,1

2020-yil

Xiva sh. – 143,8

Urganch sh. – 4,7

Viloyatimizda 2022- yilda muzeylarga yakka tartibda tashrif buyuruvchilar soni **274,0** ming kishidan iborat bo'lib, ulardan eng yuqori ko'rsatkich Xiva shahrida – **253,8** ming kishi, eng past ko'rsatkich Urganch shahrida – **20,2** ming kishini tashkil etdi.



### Shahar va tumanlar kesimida ekskursiya tarzida qatnaganlar soni, ming kishi

2022- yilda ekskursiya tarzidagi muzeylarga tashriflar soni **157,7** mingni tashkil etib, ulardan eng yuqori ko'rsatkich Xiva shahrida **149,3** ming nafarni tashkil etdi . Eng past ko'rsatkich Urganch shahriga **8,4** ming kishiga to'g'ri keladi.

2022-yil

Xiva sh. – 149,3

Urganch sh. – 8,4

2021-yil

Xiva sh. – 148,5

Urganch sh. – 9,4

2020-yil

Xiva sh. – 133,6

Urganch sh. – 2,2




## XORAZM VILOYATIDAGI TEATRLAR




2022- yilda viloyatimizdagi jami teatrlar soni **2** tani tashkil etadi. Unda namoyish etilgan spektakllar (tomoshalar) esa **463** tadan iborat. Taqdim etilgan spektakllarga tashrif buyurgan tomoshabinlar soni **81,1** ming nafarni tashkil etgan.

### Teatrlar soni, birlik


2019- yil → 2020- yil → 2021- yil → 2022- yil




### 2022-yilda teatrlarning janrlar bo'yicha taqsimlanishi, birlik




Shahar va tumanlar kesimida spektakllar (tomoshalar)  
soni, birlikda



Xorazm viloyati bo'yicha




Shahar va tumanlar kesimida tomoshabinlar soni, ming kishi



## XORAZM VILOYATIDA KONSERT TASHKILOTLARI

Viloyatimizda 2022- yilda jami faoliyat ko'rsatayotgan konsert tashkilotlari soni **1** ta bo'lib, konsert tashkilotlari tomonidan amalga oshirilgan konsertlar soni 2022- yilda **186** tani tashkil etgan. Shuningdek, tinglovchilar soni jami **64,2** ming nafarga teng bo'lgan.

### Konsert tashkilotlari soni, birlik



### 2022- yilda konsert tashkilotlari faoliyati

1 konsert tashkiloti

186 ta konsertlar


64,2 ming tinglovchi






# XORAZM VILOYATIDA MADANIYAT VA SAN'AT MUASSASALARI FAOLIYATI

## Konsertlar soni, birlik




## Konsert tashkilotlarining tinglovchilari soni, ming kishi



## XORAZM VILOYATIDA MADANIYAT VA DAM OLISH ISTIROHAT BOG'LARI

2022- yilda viloyatimizda jami **14** ta madaniyat va istirohat bog'lari mavjud bo'lib, bu ko'rsatkich hududlar kesimida taqsimlanganida, eng ko'p madaniyat va istirohat bog'lari Urganch shahrida (**3** ta), Xiva shahrida va Bog'ot tumanida (**2** ta) joshlashganligini ko'rsatdi. 2022- yilda istirohat bog'larining umumiy maydoni **164,0** gektarga teng bo'lib, ularda jami attraksionlar soni **48** tani va jami tashrif buyurganlar soni **74,6** ming kishini tashkil etgan.

### 2022- yilda istirohat bog'lari va attraksionlar soni, birlik



istirohat bog'lari  
umumiy maydoni, ga

164

74,6

qatnovlar, ming kishi

Istirohat bog'lari

Attraksionlar

## XORAZM VILOYATIDA MADANIYAT VA AHOLI DAM OLISH MARKAZLARI

2022- yilda viloyatimizda jami **66** ta madaniyat va dam olish markazlari mavjud bo'lib, ularda o'rinlar soni **12 900** tani tashkil etgan. Madaniyat va aholi dam olish markazlarida jami **3 033** ta madaniy - ma'rifiy tadbirlar o'tkazilgan va ularda **358,1** ming kishi ishtirok etgan. To'garak, studiya va badiiy havaskorlik jamoalari jami **308** tani va jamoa ishtirokchilari soni jami **5 458** kishini tashkil etgan.

Madaniyat va aholi dam olish markazlari soni, birlik

2018- yil → 2019- yil → 2020- yil → 2021- yil → 2022- yil



Madaniy ma'rifiy tadbirlar



● Jami o'tkazilgan madaniy ma'rifiy tadbirlar, birlik  
■ Madaniy ma'rifiy tadbirlarda ishtirok etganlar, ming kishi

To'garak, studiya va badiiy havaskorlik jamoalari



● Jami to'garak, studiya va badiiy havaskorlik jamoalari, birlik  
■ Jami to'garak, studiya va badiiy havaskorlik jamoalari ishtirokchilari, birlik

## Statistik ko'rsatkichlarga izoh

**Madaniyat** – inson faoliyati va shu faolliyatning ahamiyatini belgilovchi ramziy qurilmalar va asarlar majmuidir. Madaniyat musiqa, adabiyot, san'at, me'morchilik, teatr, kino va turmush tarzi kabi faoliyatlarda namoyon bo'lishi mumkin.


**Madaniy meros** bu – xalqning yoki jamoaning moddiy va nomoddiy merosidir, uni saqlab qolish va keyingi avlodlarga yetkazish uchun vasiyat qilingan. Bunga e'tiqodlar, bilimlar, badiiy ifodalar, me'yorlar va qadriyatlar, ijtimoiy amaliyotlar, urf-odatlar va urf-odatlar, joylar, obyektlar va madaniyatning har qanday boshqa ifodalari kiradi.

**Madaniy meros obyektlari** – moddiy va nomoddiy madaniy meros obyektlari.

**Moddiy madaniy meros obyektlari** – tarixiy, ilmiy, badiiy yoki o'zgacha madaniy qimmatga ega bo'lgan ansambllar, diqqatga sazovor joylar va yodgorliklar.

**Nomoddiy madaniy meros obyektlari** – tarixiy, ilmiy, badiiy yoki o'zgacha madaniy qimmatga ega bo'lgan urf-odatlar, xalq ijodiyoti (so'z, raqs, musiqa, tomosha san'ati), shuningdek ular hamda xalq badiiy hunarmandchiligi va amaliy san'ati bilan bog'liq bilimlar, ko'nikmalar, asbob-anjomlar, artefaktlar, madaniy makonlar.

**Diqqatga sazovor joylar** – inson va tabiat ijodining mushtarak mahsuli, shuningdek tarixiy, arxeologik, shaharsozlik, estetik, etnologik yoki antropologik qimmatga ega bo'lgan hududlar, shu jumladan xalq hunarmandchiligi maskanlari, tarixiy manzilgohlar yoki shaharsozlik tarixiy markazlari va tarixiy (shu jumladan harbiy) voqealar, yodgorliklar, atoqli tarixiy shaxslarning hayoti bilan bog'liq bo'lgan imoratlar, xotira joylari, tabiiy landshaftlar, shuningdek, ko'hna shaharlar, shahristonlar, manzilgohlar, qarorgohlar imoratlarining madaniy qatlamlari, qoldiqlari, marosimlar bajo etiladigan joylar.



Press-relizni tayyorlash uchun mas'ul:  
Ijtimoiy soha statistikasi bo'limi



Xorazm viloyati statistika  
boshqarmasi



Manzil: Urganch sh.,  
Al-Xorazmiy ko'chasi, 93-uy

tel.: +99862 224-65-21



e-mail: [xorazmstat@umail.uz](mailto:xorazmstat@umail.uz)



[www.xorazmstat.uz](http://www.xorazmstat.uz)



[facebook.com/xorazmstataxborot](https://facebook.com/xorazmstataxborot)